

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATINING O'ZBEK
DAVLATCHILIGI VA MADANIYATIDA TUTGAN O'RNI**

Muxtorova Munisaxon Anvarjon qizi

Qo'qon Universiteti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi

3-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur bugungi kundagi barcha sohada o'zining asarlari, ilmiy-ma'naviy meroslari bilan butun dunyoda, davlat arbobi, shoh va shoir nomlari bilan tarixdan joy egallagan. Bu maqolada Boburning shaxsiy faoliyati haqida qisqacha ma'lumot bilan birga, Boburning faoliyati O'zbek davlatchiligida qanchalik muhim ro'l o'ynagani haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek Boburning asarlarida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati to'g'risida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, ilmiy meros, madaniyat, o'zbek davlatchiligi, madaniyat, meros, "Boburnoma" asari, sharq madaniyati, ajdodlarimiz.

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda buyuk ajdodlarimiz merosiga bo'lgan e'tibor, ular qoldirgan ilmiy adabiy merosni o'rganish har qachongidanda dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan payda zamon bilan hamnafas bo'lishni istar ekanmiz, har qachongidanda koproq izlanishlar olib borishimiz zarur. Buning uchun bizda yetarlicha xazina, ajdodlarimizdan qolgan ulkan meros mavjud. Ammo, bizda shunday buyuk meroslar bor, deb o'tirish yaramaydi. Chunki, bu meroslarni bizga, shunday insonlar qoldirib ketganki, xatto ularni butun jahon tan olgan. Anashunday buyuk ajdodlarimizdan biri, butun jahonda o'zining buyuk saltanati bilan o'chmas iz qoldirgan, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek tarixidagi eng mashxur davlat arbobi, shoh va shoir. Bobur buyuk shoir, tarixchi va ma'rifatparvar hukmdor sifatida, o'z avlodlari uchun ulkan meros qoldirgan. Shu bilan birga Boburning hayotiy faoliyati ham biz uchun yana bir buyuk meros, desak, adashmagan bo'lamiz.. Bobur nafaqat O'rta Osiyoda balki, Hindistonda ham yirik davlat barpo etgan va "Boburiylar" saltanatiga asos solgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek davlatchiligi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxs sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan.

Boburning ilmiy va madaniy faoliyati o'rganishga doir ko'plab ilmiy ishlar ham olib borilmoqda. Xususan, I. Abrayqulov va M. Mahmudovlarning "Zahiriddin

Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosining milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishidagi o'rni" mavzusida yozgan ilmiy maqolasida, asosan Boburning yuksak shaxsligiga va ma'naviy yetuk shaxs ekanligiga qaratilgan bo'lib, unda Boburning ilmiy-ma'naviy merosining milliy madaniyatimning shakllanishidagi o'rni haqida turli xil munazarali fikrlar olib borilga. Bundan tashqari Sh. G'offorovning " "Boburnoma" asaridagi tilga oid ilmiy badiiy topilmalar" mavzusida yozgan ilmiy maqolasida Boburning hayot yo'li haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lmoqni istagan odam uning asarlarini o'qishi haqida fikr bildirib o'tgan. Shu bilan birga u "Boburnoma" asaridagi turkiy tillar oilasi uchun juda qadrli, ilmiy, badiiy topilmalar borligini ham ta'kidlab o'tgan. Yuqorida keltirib o'tgan ilmiy maqolalar singari juda ko'plab maqolalarni tahlil qilish mumkin. Birgina shu kichik maqollarning biriga ko'zi tushgan insonda, albatta, Boburning faoliyatiga qiziqish uyg'onadi.

Asosiy qism.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek tarixidagi eng mashxur davlat arbobi, shoh va shoir. Bobur buyuk shoir, tarixchi va ma'rifatparvar hukmdor sifatida, o'z avlodlari uchun ulkan meros qoldirgan. Shu bilan birga Boburning hayotiy faoliyati ham biz uchun yana bir buyuk meros, desak, adashmagan bo'lamiz.. Bobur nafaqat O'rta Osiyoda balki, Hindistonda ham yirik davlat barpo etgan va "Boburiylar" saltanatiga asos solgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek davlatchiligi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxs sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan.

Bobur aslida tahallus bo'lib uning asl ismi – Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo bo'lib, temuriy avlodidan edi. U 1483-yi 14-fevral kuni Andijonda, Umarshayx Mirzo oilasida tavallud topgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ yapni "Sher" laqabini oladi. Bobur bolaligidan adabiyotga qiziqishi yuqori bo'ladi ammo, 12 yoshida taqdir uning qo'llariga, qalamning o'rniga qilich tutqazadi. Bobur 12 yoshida otasining vafotidan so'ng 1494-yilda Farg'ona hokimi etib tayinlanadi. U taxtga erta o'tiradi, ammo, uning yonida onasi Qutlug' Nigorxonim bor edi. Qutlug' Nigorxonim o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Ko'rib turibmizki Boburning davlatchilik siyosatini olib borishida uning onasi alohida ro'l o'ynagan. Bu o'zbek onalarining qanday dono va oqila ayol bo'lganlarining isboti. Boburning onasiga bo'lgan hurmati va oqil farzand sifatida, onasiga quloq solgani uning buyuk sulolaga asos solishida

asosiy ahamiyatni kasb etadi. Yoshligidan davlat boshqaruvi va harbiy yurishlarda katta tajriba orttirgan Bobur taqdir uning qo'lidagi qalamni qilichga almashtirgan bo'lsada, 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlaydi. Bobur Farg'ona hokimi etib ta'yinlanganida u ko'plab dushmanlari qatori ukasiga ham qarshi turmoqligi kerak bo'ladi. Lekin Bobur o'z ukasi bilan sulh tuzmoqlik uchun Farg'ona hokimiyatini ikkiga bo'ladi va o'zi Samarqandga yurish boshlaydi. Bobur Samarqandni ikki bor egallagan bo'lsa-da, mustahkam hukmronlik o'rnatolmagan. Samarqanddagi jangda Shayboniyxonning qo'li baland keladi. Shundan so'ng ko'p vaqt o'tmasdan Shayboniyxon Andijonni ham egallab olgandan so'ng, Bobur Andijondan ham chiqib ketishga majbur bo'ladi. Ammo shunday ketma-ket mag'lubiyatlardan so'ng u aslo yengilmadi. Chunki u Bobur, yengilmas sher!

Keyinchalik 1504-yilda Kobulni egallab, o'z hokimiyatini kuchaytirib boradi.. Bu vaqtda Bobur 21 yoshda bo'lgan va shu yoshda o'z hokimiyatini kuchaytirib borgan. Boburning bu jihatini yosh bo'lsada undagi shijoatni ko'rgan inson albatta, Boburning faoliyatiga bir bor bo'lsada nazar tashlab ko'radi. Eng asosiysi, u erishgan ulkan g'alaba, Boburning eng katta harbiy va siyosiy yutug'i 1526-yilda Panipat jangida Lodiylar sulolasini tor-mor etib, Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solganligidir.. Bu saltanat Hindiston tarixida muhim o'rin egalladi. Bobur o'z davlatini markazlashgan boshqaruv tizimi, kuchli qo'shin va adolatli siyosat asosida rivojlantirishi nafaqat Hindiston tarixida, balki, butun dunyo tarixida muhim o'rin egalladi. U shunday buyuk yurishlarni amalga oshirish davomida faqatgina jang qilmadi, balki, o'zining "Boburnoma" asari orqali hozirgi tarix, geografiya va adabiyot fanlariga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Bu asarda nafaqat Boburning shaxsiy hayoti va harbiy yurishlari haqida, balki O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tabiati, madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bunday ma'lumotlarni Bobur o'zining buyuk janglari davomida yozib borgan. Ko'rib turibmizki, u hatto jangga kirishayot paytda ham o'zining ijod yo'lini tark etmagan. Bu esa, Boburning davlatchilik va madaniyat ishlarini baravar rivojlantirishdagi matonatli haraklariga yaqqol misol. U Hindiston zaminida nafaqat o'z sulolasini balki, o'z Vatanining milliy qadryatlarini ham singdira oldi. Boburiy sulolasi davrida Hindistonda ko'plab me'moriy obidalar qad rostlay boshladi. Bu qadimiy obidalarda o'zbek milliy qadryatining urug'larini ko'rishimiz mumkin. Bobur o'z yurt qopyib, Hind diuori tomon yuzlanganini aytib o'tgan. Ammo u doimo Vatan sog'inchi bilan o'tgan. Shunday bo'lsada u Hind diyorida o'z vataning madaniyatini olib kira olgan. Bu esa Bobur faoliyatida O'zbek davlatchiligining rivojlanishiga ikl qadam edi. Chunki, hozirda ham O'zbekuston davlatchiligini rivojlantirish harakatlarida, boshqa davlatlar bilan aloqalar yo'lga qo'yib kelinmoqda.

Boburning she'rlari lirika va falsafiy fikrga boy bo'lib, u o'z ijodida insoniy fazilatlarni ulug'lagan. U o'zbek tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, shuningdek, fors tilida ham asarlar yaratgan. "Boburnoma" asarida biz uchun noma'lum bo'lgan, o'tmishdagi turli xil urf odatlarni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Bobur o'z asarlarida har zabt etgan yerlari va ulardagi madaniyat o'chog'lari haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tgan. Bobur o'z asarlari orqali o'zi bo'lgan o'lkalarning madaniyati haqida kelajak avlod uchun kerakli ma'lumotlar keltirib o'tgan.

Xulosa.

Zahiriddin Muhammad Bobur bugungi kunda har bir faoliyatga o'zining ulkan hissani qo'shgan davlat arbobi. Boshqa mamlakatdagi ilmga oshno qalblar, Boburning asarlarini, uning ruboiy-u g'azllarini qiziqish bilan o'rganar ekanlar, albatta, bu insonning als yurti haqida ma'lumotga qiziqishlari tabiiy hol. Bundan tashqari Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur ruboiylarini qiziqish bilan o'qigan odam bu insonning ko'ngil kechinmalarini anglashga qiziqishini yanada ortadi. Masalan:

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Ushbu ruboiyni o'qigan inson ushbu "O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim" degan jumlagacha ko'zi tushganda, albatta, bu buyuk siymoning asl yurti qayer ekaniga qiziqishi anuq. Bobur o'z yurtini tashlab o'zga yurtida hayor kechurgan bo'lsada, o'zining asarlarida u doim o'z Vatanida bo'lgan. Shunday bo'lsada, Bobur o'zbek davlatchiligi va madaniyatiga hali hech kim takrorlay olmaydigan ulkan qamal toshini qo'yib ketgan. Har bir ishda hayr bor deganlaridek, Boburning o'z yurtidan bosh olib chiqib ketishiga majbur bo'lgani ham o'z elining kelgusida rivojlanish yo'liga ulkan hissa qo'shishining sababidir. Zero o'tmishda shunday ajdidlarimiz bo'lgan ekan biz ularga munosib avlod bo'laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosining milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishidagi o'rni" Islom Abrayqul o'g'li Ramazonov Mirsaid Mavlon o'g'li Mahmudov Termiz davlat pedagogika instituti

2. "Boburnoma" asaridagi tilga oid ilmiy-badiiy topilmalar." G'ofurova Shahnoza Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistrant.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma".

4. Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”.
5. tafakkur.net
6. Axadjon o'g'li, A. A., & Tursunboy o'g'li, N. J. (2023). SANOATNING YAIMGA TA'SIRINI BAHOLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 290-293.
7. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHDAGI O'RNI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 271-273.
8. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 333-338.
9. Azamjon o'g'li, U. A., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 73-75.
10. Tursunboy o'g'li, N. J., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 43-47.
11. Ahrorjon, A., & Gafurov, X. (2023). IQTISODIY SIYOSATNING RIVOJLANISHIDA FISKAL VA PUL-KREDIT SIYOSATI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 310-313.
12. Otto, M., & Thornton, J. (2023). CHATGPTNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: SUN'IY INTELLEKTNING KASBIY MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 65-71.
13. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). ISLAMIC FINANCE PROBLEMS AND SOLUTIONS: Study guide. *AMAZON PUBLICATION ISBN-13: 9798863282282*, 1, 200.
14. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOMIY MOLIYA BARQARORLIK OMILLARI: EKONOMETRIK TAHLILLAR VA DALILLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 74-94.
15. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA'LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O'RNI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 113-118.
16. Акабирходжаева, Д. Р., & Абдуллаев, А. А. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ НА РАЗВИТИЕ МИРОВОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА. *Экономика и социум*, (11-1 (126)), 729-739.
17. Akabirxodjayeva, D., & Abdullayev, A. (2024). TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARNING JAHON MOLIYA BOZORINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 89-96.
18. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ISLOM MOLIYASI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 188-190.
19. Keldiboyeva, Z. M. Q., & Abdullaev, A. A. O. G. L. (2022). Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablar, inklyuziv ta'limga jalb qilish. *Science and Education*, 3(11), 704-711.
20. Oybek, A., Abdullaev, A., Mavlonbekov, X., & Sharifjonov, Z. (2023). ISLOM MOLIYASIDA MUSHORAKA SHARTNOMASI. *Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari*, 2(1), 593-599.
21. Turanboyev, B., Abdupattayev, A., & Abdullaev, A. (2023). INFLYATSIYANING QIMMATLI QOG'OZLAR DAROMADIGA TA'SIRI. *Yosh tadqiqot Jurnali*, 2(2), 88-100.

22. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOM BANK TIZIMI UCHUN SHARTNOMA HUQUQI VA ASOSIY TAMOYILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 600-613.

23. Abdullaev, A. (2022). BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON SIVILIZATSIYASINING YANGILANISHIGA QO 'SHGAN HISSASI. *NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR*, 1.

24. Xusanovich, A. O. (2023). MALAYZIYADA ISLOMIY MOLIYA, TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY RIVOJLANISH O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 60-64.

25. Mulaydinov, F. (2024). Application, place and future of digital technologies in the educational system. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.

26. Jumanova, S. (2024). Analysis of PISA test results in Uzbekistan and prospects of preparing primary education students for PISA test. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.

27. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 159-162.

28. Turanboyev, B., & Abdullayev, A. (2023). DAVLAT, KORXONA VA TASHKILOTLAR BYUDJETINI TO 'G 'RI TAQSIMLASH TENDENSIYALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 304-309.

29. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.

30. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). The Role of WTO in Improving the Quality of Education. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.